

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03./30.12.2021. Tar.26.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

KALANDAROVA FERANGIZ AZAMATOVNA

MIRZO SOMIY SHAXSIY KOLLEKSIYASIDAGI MATERIALLARNING
TARIXIY-MANBASHUNOSLIK TAHLILI

07.00.08 -Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot usullari

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlagan
dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Buxoro – 2024

**Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
историческим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
historical sciences**

Kalandarova Ferangiz Azamatovna

Mirzo Somiy shaxsiy kolleksiyasidagi materiallarning tarixiy-manbashunoslik
tahlili3

Каландарова Ферангиз Азаматовна

Историко-источниковедческий анализ материалов частной коллекции
Мирза Сами.....23

Kalandarova Ferangiz Azamatovna

Historical and source analysis of materials from Mirza Sami’s private
collection43

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works.....47

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03./30.12.2021. Tar.26.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

KALANDAROVA FERANGIZ AZAMATOVNA

MIRZO SOMIY SHAXSIY KOLLEKSIYASIDAGI MATERIALLARNING
TARIXIY-MANBASHUNOSLIK TAHLILI

07.00.08 -Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot usullari

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlagan
dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Buxoro – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2023.1.PhD/Tar1360 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.ik-tarix.tdpu.uz) va «ZiyoNET» axborot-ta’lim portali (www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

To‘rayev Halim Hojiyevich
tarix fanlari doktori, professor

Rasmiy opponenlar:

Shamsiddin Kamoliddin
tarix fanlari doktori, professor

Toshova Sharifa Panoyevna
Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD)

Yetakchi tashkilot:

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03./30.12.2021.Tar.26.03 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil «__» _____ soat ___dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100077, Toshkent shaxri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27. Tel.: (+99871) 276-76-51; faks: (+99871) 276-76-51; e-mail: tdpu_kengash@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (№ __ raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil:100077, Toshkent shaxri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27. Tel.: (+99871) 276-76-51; faks: (+99871) 276-76-51.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil “__” _____ kuni tarqatildi.
(2024-yil “__” _____dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

A.K.Kirgizbayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, tarix fanlari doktori, professor

Y.R.Tayronov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, tarix fanlari nomzodi, dotsent

N.X.Oblomurodov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, tarix fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Mavzuning dolzarbligi va zarurati. Jahonda sodir bo‘layotgan turli mafkuraviy kurashlar jarayonida yoshlarimiz tarixdan saboq olib, o‘tmishda sodir bo‘lgan voqea va hodisalardan tegishli xulosalar chiqarishda tarixiy asarlar, yozma meros namunalari, shuningdek, shaxsiy kolleksiyalarda saqlanayotgan va o‘z tadqiqotchisini kutayotgan materiallarning o‘rni katta. Ajdodlar tafakkuri bilan yaratilgan qo‘lyozmalarni o‘rganish, ularning ilmiy, madaniy, ma‘rifiy qiymatini aniqlash va baho berish, bunday bebaho yozma yodgorliklarni yaratib ketgan shaxslar merosini ilmiy tahlil qilish zamonaviy tadqiqotlar doirasiga kiruvchi muhim vazifalardan biridir.

Dunyoning ko‘plab mamlakatlarida, jumladan, Germaniya, Fransiya, Yaponiya, Rossiyada Markaziy Osiyoning turli sohalarga oid qo‘lyozmalarini o‘rganuvchi ilmiy markazlar mavjud¹. Ushbu markazlarda Sharq mamlakatlari, shu jumladan Markaziy Osiyo tarixiga oid qo‘lyozmalar va ularning tadqiq etish ishlari olib boriladi. Ularning ba‘zilari Markaziy Osiyo va Eron mamlakatlaridagi olimlarning o‘zaro hamkorlikda forsiyabon manbalarni o‘rganishdagi faoliyatini qo‘llab quvvatlaydi².

XIX asr oxiri XX asr boshlarida yashab, ijod etgan aksariyat tarixchi olimlarning hayoti va ilmiy merosi o‘rganilgan bo‘lsa-da, ularni yetarli deb bo‘lmaydi. Ushbu merosga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqot ishlarining aksariyati sovet davrida amalga oshirilganligi sabab, ularda hukmron mafkura va davr metodologiyasining ta‘siri yaqqol sezilib turadi. Shunga qaramay, bu ishlar manbaviy baza va faktik materiallarning boyligi bilan hanuzgacha o‘z ilmiy ahamiyatini saqlab kelmoqda. Shuningdek, mustaqillik yillarida ham ushbu yo‘nalishdagi tadqiqot ishlari davom etib, qo‘lyozmalar manba sifatida o‘rganilishidan tashqari, yozma yodgorlik namunasi sifatida ham tahlil etilib kelinmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Buyuk alloma va adiblarimiz, aziz avliyolarimizning bebaho merosi, yengilmas sarkarda va arboblarning jasoratini yoshlar ongiga singdirish, ularda milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ularini kuchaytirishga alohida e‘tibor qaratishimiz kerak”³, - degan fikri, tarixiy manbalarning o‘rganilishi, ularni ilm va keng jamoatchilikka targ‘ib qilishni asoslaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-sonli “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”⁴gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi

¹Рукописное наследие Узбекистана // Исследования по источникам истории Средней Азии. Рукописи. Документы. Источники. Саарбрюккен: LAP, 2014. - С.107-123; The Islamic Manuscript Association. Stuttgart(Germany); The Association for the Study of Persianate Societies (ASPS. USA); Центр изучения Центральной Азии, Кавказа и Урало-Поволжья (ЦИЦАКУП).

²The Association for the Study of Persianate Societies (ASPS. USA)-Ассоциация по изучению персидских обществ.

³Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси / “Халқ сўзи” газетаси, 29 декабрь 2018 йил.

⁴Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 24 майдаги ПҚ-2995-сонли “Қадимий ёзма манбаларни сақлаш, тадқиқ ва тарғиб қилиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори. <https://lex.uz/docs/3211987>

Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-martdagi 265-sonli “Moddiy madaniy meros obektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishga oid ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”⁵ gi Qarori va sohaga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustivor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” dasturining ustivor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mirzo Somiy hayoti va ilmiy merosiga mansub tadqiqotlarni uch guruhga ajratish mumkin:

1. Sovet davrida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar;
2. Mustaqillik yillaridagi ilmiy ishlar;
3. Xorijiy mualliflarning ilmiy izlanishlari.

Sovet davrida amalga oshirilgan tadqiqotlarga G.N.Chabrov, Z.R.Rajabov, B.G.Gafurov, Sadridin Ayniy, I.Odilov, I.S.Braginskiy, L.M.Yepifanova, R.Nabiyeva, Z.Hasanova, G.Ahrorova⁶ kabi olimlarning ishlarini ko‘rsatib o‘tish mumkin.

Mustaqillik yillarida Mirzo Somiyning tarixiy, adabiy va ilmiy merosi bilan I.Sultonov, A.Odilov, D. Karimova, H.To‘rayev, Sh.Toshova kabi olimlar tadqiqot ishlarini olib bordilar⁷. Shuningdek, bu davrda olib borilgan tadqiqotlarda

⁵Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 30-мартдаги 265-сонли “Моддий маданий мерос объектларини муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланишга оид айрим норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни тасдиқлаш тўғрисида”ги қарори. <https://lex.uz/docs/4262171>.

⁶Чабров Г.Н. Новый источник по истории Бухарского ханства // Бюллетень АН УзССР. – Ташкент: 1947. – № 3. – Б. 23-25; Ражабов З.Р. Мирзо Азим Сами ва осори у // Шарқи сурх. – Душанбе: 1947.– №5. –Б. 26-30;

⁷Гафуров Б.Г. История таджикского народа(в кратком изложении).Том I.С древнейших времен до Великой Октябрьской Социалистической Революции 1917г. Издание третье, исправленное и дополненное. - Москва: Гос. изд-во полит. лит-ры,1955г. -544; Айний С. Намунаи адабиёти тоҷик. – Душанбе: Адиб, 2010. – Б.231; Айний С.تاریخ امیران منغی‌ت‌ی بوخارا. - Ташкент: Туркестанское Государственное издательство, 1923; шу муаллиф, Воспоминания. Часть третья. – М-Л.: Изд-во АН СССР, 1960. – Б. 18. Собрание восточных рукописей Академии наук Узбекской ССР, Том I. – Ташкент: Издательства АН УзССР, 1952. Б. 92-93; Брагинский И.С.Садриддин Айни. Очерк жизни и творчества. – Сталинабад: Издательство академии наук таджикской ССР,1954.– Б. 15; Антология таджикской поэзии.с древних времен до наших дней. Под редакцией И.Брагинского, М.Рахими, М.Турсунзаде и С.Улугзаде. – Москва: Государственное издательство художественной литературы, 1951.– Б. 606; Епифанова Л.М. Неофициальная версия истории Бухары Мирза Абдулазима Сами «Тарих-и салатин-и мангытйа-и дар ас-салтана-и Бухара-и шариф» (2-я половина XIX века): Дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент: 1959; Мирза Абдал’азим Сами. Та’рих-и салатин-и мангытйа / Издание текста, предисловие, перевод и примечания Л.М.Епифановой. – Москва: Изд-во восточной литературы, 1962. – Б.332; Епифанова Л.М. Рукописные источники по истории Средней Азии периода присоединения её к России. – Ташкент: Изд-во “Наука” Уз ССР, 1965; Набиева Р. Язык «Тарихи салатини мангытйа Мирза Азима Сами»(лексика и морфология): Автореф. ... канд. филол. наук. – Душанбе: 1973; Ҳасанова З.Ш. Сами и теория эпистолярного стиля в таджикской литературе XIX в.: Автореф. ... канд. филол. наук. – Душанбе: 1976; Ахророва Г. Сами и его литературное наследие: Дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1988., Ахророва Г. Мирзо Азим Самий ижодида давр танкиди. //Адабий мерос. 1989.№1.

⁷ Султонов И. Мирза Абдулазим Самий. Манғит султонлари тарихи ёки Бухоро хонлигининг инкирози//Шарқ юлдузи,1995; Karimova D.T. Mirzo Sodiq Munshiy Jondoriy. Adabiy merosining janriy tarkibi va badiiyati. Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan diss... Buxoro. 1997. – В.158; Одилов А. А. Бухоро амирлигида миллий озодлик ҳаракатлари тарихи (Абдумалик тўра бошчилигидаги халқ озодлик ҳаракати мисолида): Тарих фан. номз. ... автореф. – Тошкент: 2003; Тураев Х.Малоизвестный

Y.A.Shukurillayev, R.E.Xoliqova, J.M.Shodiyev, F.H.Bobojonova, O.A.Klichev, D.M.Jamolova kabi olimlar Somiy ilmiy merosiga murojaat qilishgan⁸.

Xorijlik tadqiqotchilaridan R.Y.Pochekayev, S.N.Brejneva, O.A.Yegorenko, O.A.Bogdanova, A.S.Morrison, V.Andreas⁹ o'zlarining ilmiy tadqiqot ishlarida Mirzo Somiyning L.M.Yepifanova tomonidan rus tiliga tarjima qilingan "*Tarixi salotini mang'itiya*" asaridan foydalanganlar. Shuningdek, Tojikistonlik bir qator tadqiqotchilar ham o'zlarining ilmiy ishlari doirasida Mirzo Somiyning asarlariga murojaat qilishgan¹⁰ va hatto maxsus tadqiq etganlar¹¹.

Ushbu tadqiqotlarda Mirzo Somiy ilmiy merosining turli qirralari yoritilgan bo'lsa-da, uning shaxsiy kolleksiyasi va unda saqlanayotgan materiallarining maxsus manbashunoslik, kodikologik tahlili amalga oshirilmagan.

Yuqorida tilga olingan tadqiqotlarning ilmiy-nazariy va metodologik ahamiyati dissertatsiya birinchi bobi birinchi paragrafida batafsil ko'rib chiqiladi.

архив Мирза Сами // Тезисы докладов научно-практической конференции "Социальное развитие и духовный прогресс". – Ташкент:Фан,1984; Тураев Х. Три частных коллекции документов, поступившие в Бухарский музей // Тезисы докладов и сообщений Всесоюзной конференции "Бартольдские чтения – 1990". – Москва: Наука, 1990; Тўраев Х. Мирзо Самийнинг шахсий архиви.// Мозийдан садо.№ 3. 2015. – Б. 32. Тураев Х. Что мы знаем о Сами? // Газета "Бухарский вестник". 2022 г. 31 августа; Тўраев Х. Мирзо Абдулазим Самийнинг тарихий асарлари.// Тарихий манбашунослик, тарихнавислик, тарих тадқиқотлари методлари ва методологиясининг долзарб масалалари. Республика XII илмий-амалий конференция материаллари.Тошкент: 2020; То'раев Н. Вухоро тарихи. – Вухоро: Durdona nashriyoti, 2020; То'раев Н. Вухоро тарихи уозма манбалари. – Вухоро: Durdona nashriyoti. 2023; Тошова Ш.П. Мирзо Абдулазим Самийнинг "Тухфаи шоҳий" асари тарихий манба сифатида. Тарих фанлари бўйича фалс. докт... автореф. – Тошкент: 2022, shu muallif. Бухоро тарихи маҳаллий муаррихлар талкинида. – Бухоро: 1992.

⁸Шукуриллаев Ю.А. Бухоро амирлигида қўшин ва ҳарбий иш (1756-1920). Тарих фанлари номзоди дисс... автореф... – Тошкент: 2006; Холикова Р.Э. XIX асрнинг иккинчи ярми - XX аср бошларида Россия-Бухоро тарихи муносабатлари тарихи. Тарих фанлари докт... дисс... автореф. – Тошкент: 2006; Шодиев.Ж.М. Бухоро амирлигининг ташкил топиши ва давлат тузуми: Юридик фанл.номз. ...дисс. – Тошкент:2008., Бобожонова Ф.Х. Бухоро амирлигида таълим тизими.(XIX аср охири ва XX аср бошида). Тарих фанл. номз. ... дисс. – Тошкент: 2011; Кlichev O.A. Россия императори сиёсий агентлиги ва Бухоро амирлиги ўртасидаги ёзишмалар Россия - Бухоро муносабатлари тарихини ўрганиш манбаси. Тарих фанлари бўйича фалс. докт...дисс. – Тошкент: 2018; Жамолова Д.М. Бухоро амирлигида жадидлар ва қадимчилар фаолияти. (XIX аср охири ва XX аср бошлари). Тарих фанлари бўйича фалс. докт...дисс; шу муаллиф, Бухоро амирлигида жадидлар ва қадимчилар фаолияти. (XIX аср охири ва XX аср бошлари), монография. – Тошкент: Мухаррир нашриёти, 2021.

⁹Почекаев Р.Ю. (2017) Российский протекторат над Бухарой в оценках бухарской элиты конца XIX — начала XX в. // Вестник Российского университета дружбы народов. Серия: Юридические науки. 2017. Т. 21. № 4. – С. 508–527, doi:10.22363/2313-2337-2017-21-4- 508-527., Брежнева С.Н. Историография проблемы присоединения Туркестанского края к России (вторая половина XIXв.- начало XXв.). Автореф. дисс... док. ист. наук. – Москва: 2005., Егоренко О.А.Бухарский эмират в период протектората России (1868-1920.). Историография проблемы .Автореф. дисс... канд. ист. наук.. – Москва: , 2008., Брежнева С.Н., Богданова О.А. Война бухарского эмирата с Российской империей в воспоминаниях очевидцев // *Viaintempore*. История. Политология. 2017. – №22 (271); Alexander S. Morrison, *Russian rule in Samarkand, 1868–1910. A comparison with British India*, New York: Published in the United States by Oxford University Press Inc, 2008; Morrison Alexander. *The Russian Conquest Of Central Asia: A Study In Imperial Expansion, 1814–1914*. Cambridge University Press, 2021; Andreas Wilde. *The Emirate of Bukhara*,. Oxford Research Encyclopaedia of Asian History Central Asian Studies, Publication Date: 2017.

¹⁰Исмаилова Б. Политические и социально-экономические положение Бухарского эмирата: вторая половина XVIII – середина XIX в. – Худжанд, 2004; Саидов А. Политическое и социально экономическое положение Бухарского ханства в XVII-первой половине XVIII вв. – Душанбе, 2007; Хашеми Ракаванди Сейид Эсмаил. Отношения Ирана с ханствами Мавераннахра в XVIII- начале XX веков. – Душанбе, 2011; Мохаммадреза Хамеди. Политические, экономические и культурные преобразования в Средней Азии в XIX-начале XX вв. – Душанбе, 2013;

¹¹Абдулзода Зиёдулло Назар. «Тухфаи шоҳи»-и Мирзо Абдулазими Сомӣ ҳамчун сарчашмаи таърихи. Дисс... барои дарёфти дараҷаи илмӣ номзади илмҳои таърих. – Душанбе, 2023.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.

Dissertatsiya Buxoro davlat universiteti Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrasining “Buxoro tarixi masalalari(eng qadimgi davrdan hozirgacha)” dasturi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: Mirzo Somiy shaxsiy kolleksiyasi va undagi materiallarning tarixiy-manbashunoslik tahlilini amalga oshirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Mirzo Somiy, uning hayoti va ijodiga oid ma’lumotlarni boyitish;

Mirzo Somiyning shaxsiy kolleksiyasi tarkibi va mazmunini o‘rganish hamda, undagi materiallarni klassifikatsiyalash;

Shaxsiy kolleksiya tarkibidagi epistolyar hujjatlarni tahlil qilish;

Shaxsiy kolleksiya tarkibidagi “*Mir’ot ul-yaqin*” asari qo‘lyozma nusxasini kolleksiyaning muhim tarkibiy qismi hamda muallifning diniy va axloqiy qarashlarini o‘rganish manbasi sifatidagi o‘rnini ko‘rsatish;

“*Daxmai shohon*” asarining Buxoroda saqlanuvchi nusxasini o‘rganib, uning manbashunoslik tahlilini amalga oshirish;

Somiy shaxsiy kolleksiyasiga mansub “*Tarixi salotini mang‘itiya*” asarining Buxoroning so‘nggi o‘rta asrlar tarixi va rus-buxoro janrlarini o‘rganishdagi ahamiyatini mahalliy va rus manbalari bilan qiyosiy tahlil qilgan holda ochib berish;

Tadqiqotning ilmiy xulosalari asosida tegishli taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti sifatida Mirzo Somiy shaxsiy kolleksiyasidagi materiallar tanlab olindi.

Tadqiqot predmeti Mirzo Somiy shaxsiy kolleksiyasidagi qo‘lyozma hujjatlar, yozishmalar, tarixiy va nazmiy asarlar, ularning muallif hayoti va ijtimoiy-siyosiy qarashlari, Buxoroning so‘nggi o‘rta asrlar tarixini yoritishdagi ahamiyatini o‘rganish tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiyada tarixiylik, tizimlilik, muammoviy-xronologik, mantiqiy yondashuv, qiyosiy tahlil, kontent tahlil, kodikologik tahlil, og‘zaki tarix usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Mirzo Somiy shaxsiy kolleksiyasi misolida hujjatlarning qo‘lyozma nusxalari va ularning ijtimoiy-siyosiy, diniy va axloqiy mazmuni, tarixiy-siyosiy tushunchalar va qarashlarining ilmiy-nazariy ahamiyati, tarixiy va zamonaviy voqelikni bayon etish bilan bir qatorda, ularga nisbatan o‘zining mustaqil yondashuvini namoyon qilganligi hamda hisobot shaklidagi maktublar va shaxsiy mazmundagi maktublarning muallif biografiyasiga oid ma’lumotlarni to‘ldirishi aniqlangan;

Mirzo Somiyning saroy munshisi lavozimidan tashqari sudur, miroxo‘r vazifalarida faoliyat ko‘rsatgani, vaqf masalalari bo‘yicha tuman qozilari faoliyatini nazorat qilish vakolatiga ega bo‘lgani, davlat ayrim saroy amaldorlarining xazinani talon-toroj qilinishdagi salbiy ta’siri hamda saroy

amaldorlari o'rtasidagi shaxsiy adovat va buning oqibatida boshqaruv tizimida nosog'lom ijtimoiy muhitning paydo bo'lishi aniqlangan;

Shaxsiy kolleksiya tarkibidagi "Mir'ot ul-yaqin" va "Daxmai shohon" asarlarining ilm ahliga kam ma'lum bo'lgan qo'lyozma nusxalari va ularning mazmuniga ko'ra shialikning Buxoro ijtimoiy-diniy muhitidagi o'rnini o'rganish bo'yicha birlamchi manba ekanligi hamda "Daxmai shohon" nusxasining o'rganilishi natijasida undagi ayrim boblarning boshqa nusxalarda mavjud emasligi dalillangan;

"Tarixi salotini mang'itiya"ning dastlab Mirzo Somiy shaxsiy kolleksiyasida saqlanganligi, uning Buxoro amirligi davlat boshqaruvi (lavozim vazifalari, mavqei, iyerarxik holati), etnik (urug'lar, aholi toiflari) munosabatlar va rus-Buxoro urushlaridagi harbiy harakatlar tarixini yorituvchi muhim manba sifatida saroydagi ijtimoiy muhit, o'zaro ixtiloflar, mansab suiiste'molliklari ko'rsatib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Mirzo Somiy hayoti va ijodiga oid yangi ma'lumotlar ilmiy muomalaga kiritildi.

Mirzo Somiy shaxsiy kolleksiyasiga tegishli ma'lumotlar to'ldirilib, yanada boyitildi.

"Mir'ot ul-yaqin" asarining qo'lyozmasining manbashunoslik tahlili amalga oshirilib, uning umumiy mazmuni aniqlandi.

Kolleksiya tarkibidagi "Daxmai shohon" asarining ham ko'lyozma nusxasi o'rganilib, uning boshqa nusxalardan oldinroq ko'chirilgani va mang'itlar davri tarixini o'rganishdagi ahamiyati oydinlashdi.

Mirzo Somiyga tegishli ijod namunalari va ularning tadqiq etilishiga oid taklif va tavsiyalar berildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi Mirzo Somiy shaxsiy kolleksiyasining muallif hayoti va ijodi, shuningdek, Buxoro tarixi haqida ma'lumot beruvchi manba sifatida o'rganishda Buxoro muzey qo'riqxonasida saqlanayotgan manbalar, Buxoro viloyat kutubxonasining sharq qo'lyozmalari bo'limi materiallari, Mirzo Somiyning tarjima qilingan asarlari va maxsus ilmiy adabiyotlarga murojaat qilingani, shuningdek, tadqiqot yuzasidan bildirilgan xulosa, taklif va tavsiyalarining respublika va xalqaro miqyosdagi nashrlar va ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama etilgani, dissertatsiyada bayon qilingan ma'lumotlarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning nazariy xulosalari Mirzo Somiyning hayoti, ilmiy merosini o'rganishda va tahlil etishda yangicha uslubiy yondashuvlarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tadqiqot ishida o'rganilgan materiallar, ulardagi ma'lumotlar va xulosalardan, berilgan taklif va amaliy tavsiyalardan Buxoro tarixini o'qitish, ayniqsa, oliy ta'lim muassasalarida Buxoroning mang'itlar davri tarixi va tarixshunosligiga oid darslik hamda o'quv qo'llanmalar yaratishda va ma'ruzalar tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Mirzo Somiy shaxsiy kolleksiyasining tarixiy-manbashunoslik tahlili mavzusi bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy xulosa va takliflar asosida:

Buxoro davlat muzey-qo'riqxonasi Tarix bo'limi va Buxoro adabiyoti tarixi muzey filiali noyob materiallar, hamda yangi ma'lumotlar bilan boyitildi. Shuningdek, Mirzo Somiyning amir nomiga yozgan maktublari, hisobot hujjatlari va boshqa hujjatlari tahlili natijasida, muallifning faoliyatiga oid to'plangan qimmatli ma'lumotlar muzey-qo'riqxonada Hujjatlar fondini boyitish uchun taqdim etildi. Bundan tashqari, ilmiy tadqiqot ishi yuzasidan "Ark" viloyat o'lkashunoslik filialida muzey ilmiy xodimlariga ma'ruza qilindi. (O'zbekiston Respublikasi Turizm va sport vazirligi huzuridagi Madaniy me'ros agentligining 2023-yil 13-iyuldagi 04-06/2393-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, muzey xodimlari Buxoro muzeyida saqlanuvchi Mirzo Somiy shaxsiy kolleksiyasi to'g'risida ko'plab yangi ma'lumotlarga ega bo'lishdi.

Mirzo Somiy shaxsiy kolleksiyasidagi "*Daxmai shohon*" va "*Mir'ot ul-yaqin*" ning qo'lyozma nusxalari hamda uning "*Tarixi salotini mang'itiya*" asarlari nafaqat adabiy va tarixiy ahamiyatga molik asarlar, balki Buxoro amirligi mang'it hukmdorlari, ularning ijtimoiy-siyosiy faoliyati va shaxsiy fazilatlariga haqida xabar beruvchi ma'lumotlaridan, shuningdek, ushbu asarlarning Buxoro amirligi XIX asr oxiri XX asr boshi tarixini yorituvchi manba ekanligi, shu davrga oid boshqa manbalar bilan qiyosiy tahlil qilingan holda o'rganilganiga doir ilmiy-nazariy xulosalaridan Buxoro viloyat teleradiokompaniyasida "Assalom Buxoro", "Sakkizinchi mo'jiza" ko'rsatuvlarining 2023-yil yanvar-fevral oylaridagi sonlarining ssenariylarini tayyorlashda unumli foydalanilgan (Buxoro viloyati teleradiokompaniyasining 2023-yil 7-iyuldagi № 02-09-169-sonli ma'lumotnomasi). Natijada ushbu teleko'rsatuvlar uchun tayyorlangan materiallarning mazmuni yosh avlodning ma'naviy olamini boyitishga, Buxoroning so'nggi o'rta asrlar tarixi va uning dolzarb masalalariga oid bilim va dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qilgan.

Mirzo Somiyning epistolyar merosi muallifning ijodiy biografiyasini yanada boyitishi, o'rta asrlar ijtimoiy muhitida oliy hukmdorga murojaat qilish tartiblari aniqlanib, undagi qozilik mahkamalarida qozilar faoliyatini taftish qilish tartibi va ularning ayrimlari Mirzo Somiyning Qushbegi devonxonasiga taqdim etgan hisobotlarida o'z aksini topganligi, Buxoro amirligidagi davlat boshqaruvi, unda qozikalarning o'rni va tuman qozilarining faoliyati tarixi Mirzo Somiy shaxsiy kolleksiyasidagi hujjatlar, asarlar asosida o'rganilganligi va ilmiy jihatdan tahlil qilinganligi haqidagi ilmiy ishning xulosalaridan "Buyuk ipak yo'li" Buxoro viloyat madaniy-ma'rifiy markaz tomonidan amalga oshirilgan "Buxoro amirligi qozixona mahkamasi tarixi" nomli ilmiy loyiha (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi nodavlat-notijorat tashkilotlarni qo'llab-quvvatlash jamoat fondining 2022-yil 27-iyuldagi 77/12/15-sonli davlat granti)ni amalga oshirishda foydalanilgan ("Buyuk ipak yo'li" Buxoro viloyat madaniy-ma'rifiy markazining 2023-yil 22-sentabrdagi 17/01-2023 sonli ma'lumotnomasi). Natijada ushbu ma'lumotlar "Buyuk ipak yo'li" Buxoro viloyat madaniy-ma'rifiy markaz tomonidan nash etilgan "Buxoro amirligi qozixona mahkamasi tarixi" (XVIII asr

o`rtalari - XX asr boshlari) nomli kitobning ilmiy mazmunini oshirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari asosida 7 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, shu jumladan, 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjuman, hamda 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda aprobatsiyadan o`tkazildi.

Tadqiqot natijalarining e`lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo`yicha jami 14 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan, O`zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola (jumladan, 4 ta respublika va 3ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, hamda foydalanilgan manba va adabiyotlar ro`yxati, shuningdek, ilova qismidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 158 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Tadqiqotning Kirish qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslanib, tadqiqotning maqsad va vazifalari, o`rganish obyekti va predmeti aniqlangan. Mavzuning o`rganilganlik darajasi, uning dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog`liqligi bayon qilingan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari hamda asosiy tadqiqot usullari ko`rsatilgan. Olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan. Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati ko`rsatilib, olingan natijalarning joriy qilinishi, aprobatsiyasi, e`lon qilingan nashrlar va dissertatsiya tarkibi haqida ma`lumot berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Mirzo Abdulazim Somiy ilmiy merosining tarixshunosligi”** deb nomlanib, uning **“Mavzuning tarixshunosligi”** deb ataluvchi birinchi paragrafida Mirzo Somiyning hayoti va ijodini o`rgangan olimlarning asarlari, ilmiy tadqiqot ishlarining tahlili asosida Mirzo Somiy ilmiy merosini o`rganilishi bir qancha davrlarga bo`lish orqali tahlil qilinadi.

Mirzo Somiy ilmiy merosining tadqiq etilishining boshlang`ich davri XX asrning birinchi yarmiga to`g`ri keladi. Uning ijodiga oid dastlabki ma`lumotlar G.N.Chabrov va Z.R.Rajabovlar tomonidan taqdim etilgan¹². B.G.Gafurov va Z.Rajabov kabi olimlar o`z ishlarida asosan uning tarixiy asarlaridan iqtiboslar keltirish bilan chegaralanganlar¹³. Tojik tili va adabiyotiga bag`ishlarga ilmiy nashrlarda Mirzo Somiy va uning ijodidan namunalar keltirganlar¹⁴. Ular orasida Sadriddin Ayniyning alohida o`rni bor. U o`zining **“Намунаи адабиёти тоҷик”**

¹²Чабров Г.Н. Новый источник по истории Бухарского ханства // Бюллетень АН УзССР. – Ташкент, 1947. – № 3. – Б. 23-25; Ражабов З.Р. Мирзо Азим Сами ва осори у // Шарки сурх. – Душанбе: 1947. – № 5. – Б. 26-30.

¹³Гафуров Б.Г. История таджикского народа(в кратком изложении).Том I.С древнейших времен до Великой Октябрьской Социалистической Революции 1917г. Издание третье, исправленное и дополненное. - Москва: 1955г.-544; Ражабов З. Развитие общественной мысли таджикского народа во второй половине XIXв и начале XX в(краткий очерк). – Сталинабад: 1951. – Б. 41.

¹⁴Брагинский И.С.Садриддин Айни. Очерк жизни и творчества. Издательство академии наук таджикской ССР.– Сталинабад: 1954.– Б. 15; Антология таджикской поэзии.с древних времен до наших дней. Под редакцией И.Брагинского, М.Рахими, М.Турсунзаде и С.Улугзаде. - Москва. Государственное издательство художественнойлитературы, 1951.– Б. 606.

asarida XIX asr oxiri XX asr boshlarida yashab ijod etgan ko'pgina shoirlar qatorida Mirzo Somiy, uning ijodiga mansub asarlar ro'yxati, she'rlaridan namunalarni keltiradi¹⁵. Bundan tashqari Sadridin Ayniy o'zining mang'itlar davri tarixiga bag'ishlangan asarini yozishda Somiyning *"Tarixi salotini mang'itiya"* asaridan keng foydalanadi¹⁶.

Somiyning tarixga oid asarlariga Sharq qo'lyozmalari institutining ilmiy xodimi I.Odilov ta'rif berib, Mirzo Somiyning *"Tuhfai shohiy"* va *"Tarixi salotini mang'itiya"* asarlarining qisqacha mazmuni, Buxoroning yangi davr tarixi, shuningdek rus-buxoro munosabatlarini o'rganishdagi ahamiyatini keltirib o'tadi¹⁷.

XX asrning 50-yillar oxiri 60-yillar boshida sovet tarixchilari tomonidan Markaziy Osiyo tarixini yorituvchi mahalliy mualliflarning asarlarini o'rganish va tadqiq etish jonlandi. Uning natijasi sifatida L.M.Yepifanovanning ilmiy tadqiqot ishi¹⁸ va birin-ketin nashrdan chiqqan ilmiy risolalarini ko'rishimiz mumkin¹⁹.

Somiyning boy adabiy merosi ko'pgina adabiyotshunos va tilshunos olimlar tomonidan ham o'rganilgan. Z.Sh.Xasanova Mirzo Somiyning ijod namunalari tojik tilidagi epistolyar adabiyotlarga mansub manba sifatida o'rgangan bo'lsa²⁰, G.Ahrorova uning boy adabiy me'rosini tadqiq etgan²¹. Olima R.Nabiyeva esa o'z dissertatsiyasida *"Tarixi salotini mang'itiya"* ning o'ziga xos til xususiyatlarini o'rgangan²².

Mustaqillik yillarida Somiyning tarixiy asarlaridan *"Tarixi salotini mang'itiya"* va *"Tuhfai shohiy"*ni o'rganib, o'z ilmiy tadqiqot ishlarini I.Sultonov²³, A.A. Odilov²⁴, Sh.P. Toshovalar²⁵ olib borishgan.

Bundan tashqari, Somiy va uning ijodiga XIX asr oxiri va XX asr boshida Buxoro amirligi, uning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy, xo'jalik va harbiy hayotiga oid masalalarni o'rgangan tadqiqotchilar Y.A.Shukurillayev, R.E.Xoliqova, J.M.Shodiyev, F.H.Bobojonova, O.A.Klichev, D.M.Jamolovalar murojaat qilishgan²⁶.

¹⁵Айний С. Намунаи адабиёти тоҷик. – Душанбе: 2010. - Б. 204.

¹⁶Айний С. Тарихи амирони мангитияи Бухоро // С. Айний. Куллиёт. Ж. 10. – Душанбе: 1966. – Б. 319

¹⁷Собрание восточных рукописей Академии наук Узбекской ССР, Том I. – Тошкент: 1952. – Б. 92-93.

¹⁸Епифанова Л.М. Неофициальная версия истории Бухары Мирза Абдулазима Самии «Тарих-и салатин-и мангитийа-и дар ас-салтана-и Бухара-и шариф» (2-я половина XIX века): Дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент: 1959.

¹⁹Мирза Абдал'азим Самии. Та'рих-и салатин-и мангитийа / Издание текста, предисловие, перевод и примечания Л.М.Епифановой. - Москва: Изд-во восточной литературы, 1962; Епифанова Л.М. Рукописные источники по истории Средней Азии периода присоединения её к России. – Ташкент: Изд-во "Наука" Уз ССР, 1965.

²⁰Хасанова З.Ш. Самии ва теория эпистолярного стиля в таджикской литературе XIX в.: Автореф. ... канд. филол. наук. – Душанбе: 1976.

²¹Ахророва Г. Самии ва ӯго литературное наследие: Дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент: 1988., Ахророва Г. Мирзо Азим Самий ижодида давр танқиди. //Адабий мерос. 1989.№1.

²²Набиева Р. Язык «Тарихи салатини мангития Мирза Азими Самии»(лексика и морфология): Автореф. ... канд. филол. наук. – Душанбе: 1973.

²³Султонов И. Мирза Абдулазим Самий.Мангит султонлари тарихи ёки Бухоро хонлигининг инқирози// Шарқ юлдузи.,1992. - Б. 129-149.

²⁴Одиллов А. А. Бухоро амрлигида миллий озодлик ҳаракатлари тарихи (Абдумалик тўра бошчилигидаги халқ озодлик ҳаракати мисолида): Тарих фанл. номз. ... автореф. – Тошкент: 2003.

²⁵Тошова Ш.П. Мирзо Абдулазим Самийнинг "Тухфаи шоҳий" асари тарихий манба сифатида. Тарих фанлари бўйича фалс. докт...автореф. – Тошкент: 2022.

²⁶Шуқуриллаев Ю.А. Бухоро амрлигида қўшин ва ҳарбий иш (1756-1920). Тарих фанлари номзоди дисс... автореф... – Тошкент: 2006; Холиқова Р.Э. XIX асрнинг иккинчи ярми - XX аср бошларида Россия-Бухоро

Mirzo Somiyning adabiyot va tarixga oid boy ilmiy merosi tadqiq etilgan bo'lsa-da, uning shaxsiy arxivi, arxiv tarkibi va mazmuniga oid malumotlar sanoqli. Ular haqidagi ba'zi ma'lumotlarni biz manbashunos olim H.H.To'rayevning bir qator ilmiy maqolalarida uchratish mumkin²⁷.

Shuningdek, chel el tadqiqotchilaridan R.Y.Pochekayev, S.N.Brejneva, O.A.Yegorenko, O.A.Bogdanova, A.S.Morrison, o'zlarining ilmiy tadqiqot ishlarida Mirzo Somiyning L.M.Yepifanova muallifligida rus tilida nashrdan chiqqan "*Tarixi salotini mang'itiya*" asariga murojaat qilishgan²⁸. Ilmiy ishlarning aksariyati Rossiya imperiyasining Buxoro amirligini yarim mustamlakaga aylantirishi va uning tarixshunosligiga oid masalaga bag'ishlangan bo'lib, ularda Somiyning mazkur asari birlamchi manba sifatida baholangan. Tojikistonlik tadqiqotchi Abdulzoda Ziyodullo Nazar ham Somiyning "Tuhfai shohiy" asarini maxsus o'rgangan olimlardan bo'lib, asarning tuzilishi, manbaviy asoslari, Movarounnahr va Xurosonning XVIII asr oxiri XIX asrlardagi davlat boshqaruvi va siyosiy vaziyati, shuningdek, asardagi Buxoro amirligiga qarashli hududlarning bosib olinishiga oid malumotlarni tahlil qilgan²⁹.

Birinchi bobning "**Mirzo Somiy asarlari – uning ijtimoiy- siyosiy va axloqiy qarashlarini o'rganish manbasi sifatida**" nomli ikkinchi paragrafida uning hayoti va ijodiga oid ma'lumotlar keltiriladi. Mirzo Somiyning tarix, adabiyot, insho san'atiga oid asarlari tahlil qilinib, ularda muallifning ijtimoiy-siyosiy va axloqiy qarashlarining aks etganligi, hayotining oxirgi yillariga oid ma'lumotlar esa uning "*Daxmai shohon*" asarining "Dar shikoyati ro'zgor" va "Dar mavridi be hidmati" qismlarda keltirilgan she'rlar asosida yoritiladi.

тарихи муносабатлари тарихи. Тарих фанлари док... дисс... автореф. – Тошкент: 2006; Шодиев.Ж.М. Бухоро амирлигининг ташкил топиши ва давлат тузуми: Юридик фанл.номз. ...дисс.- Тошкент: 2008; Бобожонова Ф.Х. Бухоро амирлигида таълим тизими.(XIX аср охири ва XX аср бошида). Тарих фанл. номз. ... дисс. - Тошкент: 2011; Кличев О.А. Россия императори сиёсий агентлиги ва Бухоро амирлиги ўртасидаги ёзишмалар Россия-Бухоро муносабатлари тарихини ўрганиш манбаси. Тарих фанлари бўйича фалс. докт...дисс.– Тошкент: 2018; Жамолова Д.М. Бухоро амирлигида жадидлар ва қадимчилар фаолияти. (XIX аср охири ва XX аср бошлари). Тарих фанлари бўйича фалс. докт...дисс. – Тошкент: 2019; шу муаллиф, Бухоро амирлигида жадидлар ва қадимчилар фаолияти. (XIX аср охири ва XX аср бошлари), монография. - Тошкент: Муҳаррир нашриёти, 2021.

²⁷Тураев Х.Х.Малоизвестный архив Мирза Сами // Тезисы докладов научно-практической конференции "Социальное развитие и духовный прогресс".- Ташкент: Фан,1984.- Б.42-44; Тураев Х. Три частных коллекции документов, поступившие в Бухарский музей // Тезисы докладов и сообщений Всесоюзной конференции "Бартольдские чтения – 1990". – Москва: Наука, 1990. – Б.77-78. Тўраев Х.Х. Мирзо Самийнинг шахсий архиви.// Мозийдан садо. № 3. 2015. - Б. 32. Тураев Х. Что мы знаем о Сами?// Бухарский вестник.2022г. 31-августа; Тўраев Х.Х. Мирзо Абдулазим Самийнинг тарихий асарлари // Тарихий манбашунослик, тарихнавислик, тарих тадқиқотлари методлари ва методологиясининг долзарб масалалари. Республика ХШилмий-амалий конференция материаллари. - Б. 30-35.

²⁸Почекаев Р.Ю. Российский протекторат над Бухарой в оценках бухарской элиты конца XIX — начала XX в. // Вестник Российского университета дружбы народов. Серия: Юридические науки. 2017. Т. 21. № 4. -Б. 508–527, doi:10.22363/2313-2337-2017-21-4- 508-527., Брежнева С.Н. Историография проблемы присоединения Туркестанского края к России (вторая половина XIXв.- начало XXв.). Автореф. дисс... док. ист. наук.-Москва; 2005; Егоренко О.А. Бухарский эмират в период протектората России (1868-1920.). Историография проблемы .Автореф. дисс... канд. ист. наук.–Москва: 2008; Брежнева С.Н., Богданова О.А. Война бухарского эмирата с Российской империей в воспоминаниях очевидцев // *Viaintempore*. История. Политология. 2017. №22 (271)., Morrison A.S. Russian rule in Samarkand 1868-1910(A Comparison with British India). - New York:Published in the United States by Oxford University Press Inc,2008.

²⁹ Абдулзода Зиёдулло Назар. «Тухфаи шоҳи»-и Мирзо Абдулазими Сами ҳамчун сарчашмаи таърихи. Дисс... барои дарёфти дараҷаи илмий номзади илмҳои таърих. – Душанбе, 2023.

Mirzo Somiy Amir Muzaffar (1860-1885) davrida saroyda munshilik (kotiblik) qilib, uning e'tiborini qozongan. Rossiya va Buxoro amirligi o'rtasidagi harbiy harakatlar davrida u amir Muzaffar qo'shini tarkibida bo'lib, o'zini "voqeinigor" (voqealarning kuzatuvchisi) deb ataydi. Amir Abdulahad saroyida 10 yilcha xizmat qilgan shoir umrining oxirgi yillarida (u shu paytda taxminan 60 yoshlarda bo'lgan) saroydan chetlashtiriladi.

Mirzo Somiydan boy ilmiy meros qolgan. Uning ilmiy merosi asosan tarix, adabiyot ilmi va xattotlik san'atiga oiddir. Bulardan mazmunan bir-biriga yaqin ikki tarixiy asari bo'lib, "*Tuhfai shohiy*" ("Shohlar tuhfası") 1899/1900-1902/1903, "*Tarixi salotini mang'itiya*" ("Mang'it hukmdorlari tarixi") 1906-1907 yillarda yozilgan. Bu ikki yilnoma aynan bir davrni, ya'ni Buxoro amirligida mang'itlar sulolasining hukmronlik davrini yoritadi. Bu asarlarda asosan amir Muzaffar davrida bo'lib o'tgan voqealar aks etgan bo'lsa-da, ular o'rtasida sezilarli tafovut mavjud.

Mirzo Somiyning "*Tarixi salotini mang'itiya*" asarini nafaqat tarixiy, balki muallifning ijtimoiy-siyosiy qarashlarini o'rganish manbasi sifatida tahlil etish mumkin. Chunki asarni yozish jarayonida muallif tarixiy va zamonaviy voqe'likni bayon etish bilan bir qatorda, ularga nisbatan o'zining mustaqil yondashuvini ham ko'rsatadi. Jumladan 1898-yilgi Andijon qo'zg'oloni, Rossiya va Buxoro munosabatlari, amir Abdulahad va uning hukmronlik davriga oid boshqa siyosiy va ijtimoiy masalalar haqida yozadi.

O'zR FA Sharqshunoslik Institutida Mirzo Somiyning "*Risola-i insho*"³⁰, "*Tanzix al-insho*"³¹ yoki "*Manozir al-insho*"³² kabi maktublar va uning turlariga bag'ishlangan asarlari saqlanadi. 1882-1883-yillarda Buxoro amirligi bosh vaziri Ostanaqul qushbегining topshirig'iga binoan yozilgan mazkur asarlar, o'sha paytda mirzolar uchun qo'llanma vazifasini bajargan³³. Somiyning "*San'ati mahzun*" asari o'z davrida yosh munshilar uchun nafaqat nazariy, balki o'zida turli sohalarga oid maktub va yozishmalarni jamlagani tufayli, amaliy qo'llanma vazifasini bajargan.

Mirzo Somiy qalamiga mansub yana bir asar "*Mir'ot ul-xayol*" ("Xayol ko'zgusi") deb nomlanadi³⁴. Bu asar turli mavzulardagi she'rlarning jamlanmasidan iborat bo'lib, ular muallifga zamondosh bo'lgan insonlar hamda turli voqealarga bag'ishlangan.

Uning hayoti va ilmiy merosini o'rganib, shunday xulosaga kelish mumkinki, uning nasriy va nazmiy ijod namunalarida mang'itlar davri tarixi yoritilibgina qolmay, o'z davrining mavjud muammolari, shuningdek Mirzo Somiyning siyosiy qarashlari ham o'z aksini topgan. Uning qalamiga mansub asarlarning

³⁰ЎЗР ФА ШИ қўлёзмаси. №293

³¹ЎЗР ФА ШИ қўлёзмаси. №4353

³²ЎЗР ФА ШИ қўлёзмаси. №294

³³Асар турли нусхаларда турлича номлар билан келади. "Рисолаи иншо"ни олима Хасанова З.Ш. "Санъати махзун" номи билан тадқиқ этган. Асарнинг Ўзбекистонда сақланувчи нусхаларида бу ном учратилмайди(Собрание восточных рукописей Академии наук Узбекской ССР, Том VI.-Ташкент: 1963. - Б. 172-173.) Балки асарнинг Тожикистонда сақланувчи икки нусхасида рисоланинг шундан ном билан аталган нусхаси бор.

³⁴ЎЗР ФА ШИ қўлёзмаси. №2188.

mazmunidan uning qiziqishlari va iqtidor doirasining ancha keng bo'lganligiga amin bo'lamiz.

Tadqiqotning ikkinchi bobi **“Mirzo Somiy shaxsiy kolleksiyasining klassifikatsiyasi va mazmuni”** masalasi tahliliga bag'ishlangan. Mazkur bobning **“Mirzo Somiy shaxsiy kolleksiyasi tarkibidagi epistolyar manbalar”** nomli birinchi paragrafida Somiy shaxsiy kolleksiyasida mavjud epistolyar manbalarning mazmuni tahlil qilingan.

Buxoro muzeyida saqlanayotgan Mirzo Somiy shaxsiy kolleksiyasiga oid materiallarni ma'no-mazmuniga ko'ra quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

- she'rlar;
- amir nomiga yozilgan xatlar;
- hukumat topshirig'ining bajarilishi to'g'risida hisobotlar;
- qoralama daftar;
- turli kitoblardan parchalar;
- diniy mazmundagi hujjatlar;
- Somiy qalamiga mansub asarlar.

Mirzo Somiy shaxsiy arxiviga tegishli hujjatlarning bugungi kunga qadar yetib kelishi va o'rganilishida uning avlodlarining xizmatlari katta. Mirzo Somiy qalamiga mansub ijod namunalari ba'zilar uning o'g'li qori Fayzullo ibn Mirzo Somiy Bo'stoniydan sotib olingan bo'lsa, ba'zilar uning nevarasi Azimova Mo'mina Fayzullayevna tomonidan muzey fondiga topshirilgan. Somiyning nevaralari tomonidan muzey fondiga topshirilgan qo'lyozmalar muzeyda №14372/11 raqami bilan, “Рукописные тексты из личного архива известного Бухарского поэта и каллиграфа Мирза Азима Сами Бустони” nomi ostida saqlanadi³⁵. Yig'ma jilddagi hujjatlar turli soha va mazmunga oid ekanligini ko'rishimiz mumkin³⁶. Bundan tashqari, muzey fondida №13381/11 inventar raqami bilan “Рукописные листы из архива придворного каллиграфа Мирзо Азима Сами Бустони” nomli hujjatlar to'plami mavjud bo'lib, u ham o'zida Somiy shaxsiy kolleksiyasining bir qancha namunalari jamlagan³⁷.

Ijtimoiy mazmundagi, hisobot shaklidagi maktublar bizga uning saroydagi faoliyati haqida ma'lumotlarni bersa, shaxsiy mazmundagi maktublar uning biografik ma'lumotlarini to'ldiradi. Jumladan, shaxsiy arxiv materiallari orasida shu mazmundagi uchta maktubni uchratishimiz mumkin³⁸. Maktublarning birortasida ularning yozilgan sanasi ko'rsatilmagan. Bu esa Mirzo Somiyning

³⁵Бухоро музейи қўлёзмаси. №14372/11.(Рукописные тексты из личного архива известного Бухарского поэта и каллиграфа Мирза Азима Сами Бустони).

³⁶Бухоро музейи қўлёзмаси. №13373/11(5). (Докладная Мирзо Азима эмиру о выполнении поручений); 13373/11(11). Прощение Мирзо Азима эмиру; 13373/11(18). Отрывок из касиды Самий; 13373/11(23). Запись стихов Самий; 13373/11(34) Хадис и его таджикский перевод.

³⁷Бухоро музейи қўлёзмалари. №13381/11(14) (Черновик. Отрывок рубаи); 13381/11(16) (Запись стихов); 13381/11(17).(Касида.“Светилу Бухары”); 13381/11(18). (<Касида...Самий>); 13381/11(19) (Запись стихов); 13381/11(20). (Разбор текста суры “Ихлос” Корана); 13381/11(22). (Панегирик эмиру Бухары.); 13381/11(23). (Список должностей русских делопроизводителей); 13381/11(24). (Список русских военных званий).

³⁸ Бухоро музейи қўлёзмалари. № 11520/11. (Письмо эмиру от бывшего придворного); 13373/73(11)(Прощение Мирзо Азима эмиру); 13373/11(6). (Ответное письмо Мирзо Азима (эмиру с надеждой на восстановление в должности).

taxminan qaysi yillargacha amirga uzrxohlik bilan murojaat qilib, saroydagi faoliyatiga qaytishni so‘raganini aniqlash imkonini bermaydi.

Shaxsiy kolleksiyaning yana bir muhim elementi, bu Mirzo Somiyga tegishli bo‘lgan shaxsiy muhrlardir. Hujjatlarning ba‘zilaridagina ko‘rinadigan muhrlar o‘zining shakli va yozuvlari bilan bir-biridan farq qiladi. Ularning biri oval shaklda “Mirzo Muhammad Azim” yozuvi va 1314 sanasiga, ikkinchi muhr to‘g‘ri to‘rtburchak shaklda hamda “Mirzo Azim munshiy” yozuvi va 1300 sanasiga ega. “Mirzo Azim munshiy” yozuvli muhrning ikki - to‘rtburchak va oval shakldagisi “*Mir‘ot ul-yaqin*” asarining qo‘lyozmasiga bosilganini va undagi hijriy 1300 yil, milodiy 1885 yilga to‘g‘ri kelishini inobatga oladigan bo‘lsak, Somiy bu muhrlardan munshilik lavozimida bo‘lgan paytlari foydalanganligi ayon bo‘ladi. Birinchi - “Mirzo Muhammad Azim” yozuvli muhrdagi hijriy 1314 yilning milodiy 1900 yilga to‘g‘ri kelishidan kelib chiqadigan bo‘lsak, Somiy ulardan saroydan bo‘shagan paytda foydalanganiga amin bo‘lamiz.

Shaxsiy kolleksiyaning shakllanish masalasiga nazar tashlaganda, u Somiyning saroy xizmatida turgan paytdan boshlanganiga guvoh bo‘lamiz. Chunki kolleksiyaning hisobot mazmunidagi ayrim maktublarida “amaldori mahram” iborasi ishlatiladi. Bundan tashqari uning “*Mir‘ot ul-yaqin*” asarining yozilgan yiliga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, asar 1885-yilda yozib tugallangan. Kolleksiyadagi boshqa epistolyar hujjatlarni tahlili shuni ko‘rsatdiki, ularning aksariyati Mirzo Somiyning amir Abdulahaddan uni saroy xizmatiga qayta olishni so‘rab yozgan maktublari tashkil etadi. Shunday ekan, kolleksiya materiallarining shakllanishi muallifning saroyda faoliyat olib borgan davridan boshlab, umrining oxirigacha, ya‘ni saroy xizmatidan tashqarida bo‘lgan paytga qadar davom etgan.

Somiy shaxsiy kolleksiyasi ko‘p sonli she‘r parchalaridan tortib to‘liq asar qo‘lyozmalarigacha bo‘lgan yozma yodgorlik namunalari o‘zida jamlaydi va Mirzo Somiy ilmiy-ijodiy merosining yangi qirralarini ochishga yordam beradi.

Shu bilan birga, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Buxoro amirligi saroyidagi ijtimoiy muhit, o‘zaro ixtiloflar, mansab suiiste‘molliklari, davlat mulkini talon-taroj qilish, oliy hukmdorga murojaat va uning natijalari to‘g‘risidagi masalalarga birmuncha aniqliklar kiritadi.

Ikkinchi bobning “**Mir‘ot ul-yaqin**” shaxsiy kolleksiyaning muhim tarkibiy qismi” nomli ikkinchi paragrafida mazkur asarning manbashunoslik tahlili amalga oshirilgan. Bu asarning Buxoroda saqlanib kelingan nusxasi Somiy dastxatiga tegishli. Bunday xulosaga kelishimizga sabab, birinchidan, “*Mir‘ot ul-yaqin*” yagona nusxada bo‘lib, bu nusxa Somiyning Buxoro shahrida yashovchi o‘g‘lidan kutubxona uchun sotib olingan.

Shaxsiy kolleksiyaning muhim tarkibiy qismi bo‘lgan “*Mir‘ot ul-yaqin*” asari shia mazhabining bir qancha masalalarini o‘zida aks ettirgani, shuningdek, Somiyning diniy bilim va dunyoqarashini o‘rganish manbasi bo‘lganligi bilan ajralib turadi. Somiyning ushbu asarlari ko‘plab ilmiy ishlarda uning boshqa ijod namunalari qatorida sanab o‘tilgan bo‘lsa-da, hanuzga qadar tadqiqot doirasiga tortilmagan. U haqidagi dastlabki malumot Sh. Toshovanning ilmiy maqolasida keltiriladi. Maqolada manbaning Buxoroda mahalliy aholining ko‘pchiligini

tashkil qiluvchi sunniylar bilan eroniy shialar orasidagi ijtimoiy, siyosiy raqobat va ziddiyatlarni o'rganishda qimmatli manba ekanligi, sunniy-shia mojarosining diniy aspektlarini kengroq tushunishga yordam berishi aniqlangan³⁹.

